

TUNISDA “ARAB BAHORI” HODISALARI TAHLILI

Eshpulotov Alpomish

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Muxtor Nazirov

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar kafedrası” dotsenti v.b.,
siyosiy fanlar bo‘yicha fasafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasining aksar qismini qamrab olgan “Arab bahori” voqealarining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lmish Tunisdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mohiyati, kelib chiqishi sabablari va rivojlanish dinamikasi, ichki va tashqi omillar ta’siri tahlil qilindi.

***Kalit so‘zlar:** Tunis, “Arab bahori”, Ben Ali, “boshqariladigan beqarorlik”, ijtimoiy tarmoqlar, ishsizlik darajasi, Shimoliy Afrika.*

АНАЛИЗ СОБЫТИЙ “АРАБСКОЙ ВЕСНЫ” В ТУНИСЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализирована сущность, причины возникновения и динамика развития сложных социально-политических процессов в Тунисе, влияние внутренних и внешних факторов, ставших отправной точкой событий “арабской весны”, охватившей большую часть региона Ближнего Востока и Северной Африки.

***Ключевые слова:** Тунис, “Арабская весна”, Бен Али, “управляемая нестабильность”, социальные сети, уровень безработицы, Северная Африка.*

ANALYSIS OF THE “ARAB SPRING” EVENTS IN TUNISIA

ABSTRACT

This article analyzed the essence of complex socio-political processes in Tunisia, the causes of origin and dynamics of development, the influence of internal and external factors, which are the starting point of the events of the “Arab Spring”, covering most of the Middle East and North Africa region.

***Keywords:** Tunisia, “Arab Spring”, Ben Ali, “managed instability”, social networks, unemployment rate, North Africa.*

KIRISH

Tunis Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasining barqaror davlatlaridan biri bo'lib, 2010 yil oxirida kutilmaganda yangi ichki siyosiy tahdidlarga duch keldi. Ma'lumki, aynan Tunis "Arab bahori" inqilobiy voqealarining "to'ng'ichi" bo'ldi, bu mintaqaning ko'plab davlatlarini namoyish va tartibsizliklar, siyosiy rejimlarning o'zgarishi va fuqarolar urushlariga jalb qildi. Ammo nima uchun siyosiy va iqtisodiy jihatdan barqaror, sayyohlar va investorlarni jalb qilgan Tunisda ijtimoiy norozilik birinchi epitsentri bo'lib chiqdi? "Arab bahori" nomi bilan tanilgan, 2010 yil dekabr oyida Tunisda qanday ichki sabablar ommaviy tartibsizliklarga olib kelgan edi? Mazkur savollarga quyida javob izlashga harakat qilamiz.

METODLAR

Maqolada tarixiy hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar izlashda ingliz va rus tilidagi maqola va kitoblardan foydalanildi.

MUNOZARA VA NATIJALAR

Tunisdagi "Arab bahori" ko'plab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning kombinatsiyasi natijasida yuzaga keldi. Ammo tunisliklarni namoyishlarga undagan asosiy sabablar iqtisodiydir. Ma'lumki, aynan yosh ishsiz Tunis savdogarini o'z-o'zini yoqib yuborishga urinishi g'azablangan odamlarni ko'chalarga olib chiqdi. Ularning talablari tovarlar narxini pasaytirish, ish o'rinlarini ko'paytirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va faol islohotlar bilna bog'liq bo'ldi.

Birinchidan, Tunis uchun ishsizlik darajasi juda yuqori bo'lib, bu ishsiz yoshlarning ko'pligi tufayli keskin yomonlashdi. "Universitetlarning yosh bitiruvchilari o'z davlatlarida ish o'rinlari mavjud emasligi muammosiga duch kelishdi. Davlat hammaga bepul ta'lim beradi, ammo ish bilan ta'minlashni kafolatlamaydi" (Лаумулин М, 2011, с.16).

Tunis jamiyatida oliy ta'limning qadrsizlanishi yuz berdi, uning mavjudligi na yuqori maoshli ish, na munosib ijtimoiy mavqeni kafolatlamadi, bu tabiiy ravishda aholini, ayniqsa yosh, eng faol, o'zgarish istagini, jamiyatning harakatchanligini oshirishga undadi. Bu holat ko'p jihatdan o'z vaqtida iqtisodiy o'zgarish va islohotlarning yo'qligi tufayli yuzaga keldi.

Ikkinchidan, Shimoliy Afrika mintaqasida, xususan Tunisda jarayonlar yuqori darajadagi korrupsiya bilan bog'liq. Korrupsiya davlat mulkini o'z qo'liga jamlagan hokimiyat tuzilmasi tufayli yanada og'ir tus oldi. Tunis inqilobidan oldin mamlakatni boshqargan Ben Ali va uning rafiqasi Leyla Trabelsi iqtisodiyotning deyarli barcha yirik va eng muhim va daromadli tarmoqlariga egalik qilgan. "Chet elliklar bilan hech qanday yirik shartnoma ularning nazaridan chetda qolmas edi. Prezidentga yoki

uning atrofidadilarga yaqinligi davlat banklaridan kredit olish, soliqlardan qochish va boshqa huquqbuzarliklarga yo‘l ochdi” (Кашина А., 2011, с. 80)

Korrupsiya va ishsizlik juda yuqori darajada edi va vaziyatni yaxshilashga bo‘lgan harakatlar besamar ketganligi aholining faol qismini harakatga keltirdi. “Oddiy odamlar ham Tunisda bu haqida gapirishardi: Layla yuragiga yoqadigan hamma narsani o‘z qo‘liga oldi: u o‘z foydasiga milliy o‘rmon parkining bir qismini va unga yoqqan Villani osongina tortib olishi mumkin edi” (Видясова М., 2011, с. 82) Tabiiyki, Ben Ali rejimining bunday faoliyatidan oddiy tunisliklarni g‘azablantirar edi.

Uchinchidan, mamlakat ichidagi iqtisodiy resurslarning notekis taqsimlanishi va shunga mos ravishda mamlakatning boy shimolga (neft qazib olish, sayyohlik sanoati) va kambag‘al janubga norasmiy bo‘linishi, shuningdek, Shimoliy Afrika mintaqasi davlatlariga xos bo‘lgan shaharlarda urbanizatsiya va aholi sonining yuqori tabiiy o‘sish tendensiyasi ishsizlik muammosini kuchaytirdi. Iqtisodiy o‘zgarishlar suratining pastligi ijtimoiy loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashi salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

“Arab dunyosidagi demografik vaziyat intensiv urbanizatsiya omili bilan birgalikda harakat qilib, ayniqsa kuchli beqarorlashtiruvchi ta‘sir ko‘rsatgan ko‘plab yoshlar bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, bunday yoshlar eng yirik shaharlarda siyosiy markazlarda to‘plangan” (Коропаяев А., 2012, с.58).

Iqtisodiy muammolar fonida Tunisda hokimiyat legitimligi pasayishi va ichki siyosiy vaziyat beqaror holatga kelishi ajablanarli emas.

To‘rtinchidan, “Arab bahori” inqilobiy voqealari paytida Islom omili sezilarli darajada faollashdi, bunga dunyoviy hokimiyat obro‘sining pasayishi, aholining davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini yo‘qotishi turtki berdi. “Keng musulmon ommasi mentalitetga, sof diniy qadriyatlarga yaqinlashdi, chunki Islom Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari madaniyati va ijtimoiy tuzilishining umumiy mafkuraviy asosi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda, u ularning hayotining barcha sohalariga kirib boradi va uning xususiyatlarini belgilaydi” (Федорченко А., 2012, с.14).

Ekspertlar fikricha, aksariyat islomchilar noroziliklarda ishtirok etgan bo‘lsalarda, mamlakatda taqiqlangan “Al Nahda” islomiy partiyasi noroziliklarni tashkillashtirishda hech qanday rol o‘ynamadi. Ko‘chalarda islomiy shiorlar yangramadi.

Tunisda namoyishchilarning siyosiy talablari, so‘z erkinligi, yig‘ilish erkinligi, siyosiy plyuralizm, adolatli va ochiq saylovlar istagi ommaviy norozilikning sababi emas, balki natijasi bo‘ldi. S.Filatovning fikricha: “Hamma joyda “demokratiya”

soʻzi eshitildi, ammo agar siz odamlardan bu nima ekanligini soʻrasangiz, bu atamaning turli xil talqinlari paydo boʻladi. Hamma uni boshqacha tushunadi. Va bu siyosiy haqiqat. Shuning uchun, “demokratiya”ga intilish emas aksincha, “adolat” inqilobiy voqealar uchun eng kuchli turtki boʻldi” (Филатов С., 2015).

Tunisda “Arab bahori” aholiga katta yuk boʻlgan keng koʻlamli ichki muammolarning natijasi boʻlganligi haqidagi fikrlar ham, bir tomondan, bahsli. Sababi, uzoq muddat mamlakatni boshqargan prezident va qudratli kuchlarning siyosiy bosimidan charchagan odamlar, aholi qatlamlari oʻrtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik va mamlakat aholisining koʻpchiligining munosib hayoti uchun iqtisodiy imkoniyatlarning yetishmasligi, ommaviy tartibsizliklarga avval iqtisodiy, keyin siyosiy oʻzgarishlar talabi qoʻyilishiga olib keldi. Jamiyatdagi bunday murakkab va chuqur muammolarni bir lahzada hal qilishning imkoni albatta yoʻq, bu oʻn yildan koʻproq vaqt talab qilishi mumkin. Shu sababli, mamlakat aholisining aksariyat qismi davlatning yangi paydo boʻlayotgan hokimiyat tuzilmalariga, siyosiy rahbarlarga va ularning faoliyatiga ishonchsizlik bilan qaradi.

Beshinchidan, Tunisning yuqori martabali harbiy mulozimlari Ben Alini hokimiyatdan voz kechishga chaqirdi. Bu vaziyatda harbiy toʻntarishni yoki olomonning prezident saroyiga hujum qilishini kutish oʻrniga, Ben Ali va uning oilasini mamlakatdan qochib ketishdi. Armiya jamoat ishonchiga yuqori baho berdi va uning vaziyatga aralashuvi jamoat tartibining xolis himoyachisi vazifasini bajardi.

Oltinchidan, korrupsiya Arab mamlakatlaridagi ommaviy tartibsizliklarga jamoat gʻazabining drayveri sifatida kuchli taʼsir koʻrsatadi. (Ardic, 2012). Oddiy odamlar turmush darajasi pasayganini elita orasida tobora ochiq korrupsiya va boylik kontsentratsiyasi bilan bogʻladi. Tunis bir partiyali davlat boʻlgan prezidentning “shaxsiy qoʻriqxonasi”ga aylandi. Ilgari elita oʻrtasida taqsimlangan iqtisodiy resurslar Ben Ali va uning rafiqasi Leyla Trabelsi tomonidan tobora monopollashtirildi (ICG, 2011).

Yettinchidan, “Al-jazira” va boshqa nodavlat media kanallari Tunisda korrupsiya va hokimiyat suiisteʼmollik holatlari haqida jamoatchilik xabardorligini oshirdi va ularni dunyoning boshqa qismlarida qoʻllaniladigan demokratik meʼyorlar bilan taqqoslashga imkon berdi. Internet amaldorlarning hashamatli turmush darajasini taqdim etgan videolarni namoyish etdi va shu bilan rejim yanqidchilari soni ortishiga hizmat qildi. OAV 2009 yilda, misol uchun, Tunisdagi Ben Ali oilasining korrupsion yoʻllar bilan ortirilgan boyligi kabi baʼzi “sirlarni” ochib berdi. Rejim va amaldagi xavfsizlik idoralari tomonidan amalga oshirilgan harakatlar oddiy fuqarolarni gʻazab va adolatsizlik hissi kuchayishiga sabab boʻldi. Tunisdagi

norozilik harakatlarini yoritishni to'xtatish talabiga qaramay OAV buni davom ettirdi (Delacoura, 2012).

Facebook, Twitter, Youtube va boshqa ijtimoiy tarmoqlar Tunisdagi "Arab bahori" inqiloblarida eng muhim rol o'ynadi. Ushbu tarmoqlar internet makonida erkinlikni yaratilishga olib keldi, ijtimoiy tarmoqlar norozilik harakatlarida uchqun vazifasini bajardi. Ular muqobil ommaviy axborot vositalari sifatida, fuqaroning virtual dunyoda o'z fikrlarini bildirishi va siyosiy tadbirlarda ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratdi. Harakatlar ijtimoiy tarmoqlardan boshqalarni safarbar qilish va unda ishtirok etishga undash uchun foydalangan.

XULOSA

Garchi ba'zi mutaxassislar tomonidan "Arab bahori" fenomeni boshqariluvchi betartiblik tushunchasi bilan izohlansada, Tunis davlatida Arab bahori sodir bo'lishi uchun tabiiy sabablar yetilib qolgan edi. Ijtimoiy kayfiyat va bosimning katta ekanligi birinchi imkon paydo bo'lishi bilan aholining ommaviy tartibsizliklariga sabab bo'ldi.

Aholining siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy hayotda adolat va qonuniylikka bo'lgan ehtiyoji katta edi. Shu sababli ular fuqarolik bo'ysunmaslik harakatlari yordamida hokimiyatini o'zgartirishga erishdilar. Ular qo'llagan usullar esa boshqa Arab davlatlari, jumladan Misr inqilobiy harakat vakillari uchun "tajriba" vazifasini bajardi va "domino effekti" vujudga kelib, butun mintaqani inqiloblar zanjiri bilan qamrab olgan "Arab bahori" voqealariga kuchli turtki bo'ldi.

REFERENCES

1. Ardic, N. (2012). Understanding the "Arab Spring": Justice, Dignity, Religion and International Politics *Afro Eurasian Studies*, Vol. 1, Issue 1, Spring 2012, pp. 8-52. <http://trinityhistory.org/Glob/PDFS/understanding%20arab%20spring.pdf>
2. Delacoura, K. (2012). The 2011 uprisings in the Arab Middle East: political change and geopolitical implications. *International Affairs*, 88:1, pp. 63-79. http://www.brooklyn.cuny.edu/web/aca_socialsciences_polisci/150422_IA_Comps_2011-UprisingsArab-Middle-East.pdf
3. ICG (2011). Popular Protest in North Africa and the Middle East (IV): Tunisia's Way. (MENA Report 106, 28 April 2011). Brussels: International Crisis Group. <http://www.crisisgroup.org/en/regions/middleeast-north-africa/north-africa/tunisia/106-popular-protests-in-north-africa-and-the-middle-east-iv-tunisia-way.aspx>
4. Видясова М.Ф. Куда идет тунисская «революция»? // Обозреватель – Observer. -№10. -2011. – 79-96 с.

5. Кашина А.А. «Жасминовая революция» в Тунисе. // Обозреватель – Observer. -№7. -2011. – 74-82 с.
6. Кортаев А.В., Зинькина Ю.В., Ходунов А.С. Арабская весна 2011 года. Системный мониторинг глобальных и региональных рисков. - М.: ЛКИ/URSS, 2012. – 464 с.
7. Лаумулин М.Т. «Арабская весна» 2011 года: социально-политические изменения на Арабском Востоке и их международные последствия. - Алматы: КИСИ, 2011. – 236 с.
8. Федорченко А.В., Крылов А.В. Ближний Восток: возможные варианты трансформационных процессов. Аналитические доклады. - М.: МГИМО – Университет, 2012, №3. – 84 с.
9. Филатов С. Ближний Восток: «Идеальный шторм». // Международная жизнь. -№2. -2011. <https://interaffairs.ru/news/show/664>.